

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

XORAZMSHOHLAR DAVLATINING IJTIMOYIY-SIYOSIY HAYOTIDA TURKON XOTUNING TUTGAN O'RNINI VA SO'NGI TAQDIRI

Bafoyev Shohruxmirzo Bahodir o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti tarix fakulteti 4 bosqich talabasi

Anotatsiya

Ushbu tezisda Xorazmshohlar malikasi Turkon Xotunning siyosiy faoliyati, Sulton Alovuddin Muhammad bilan ichki nizolari, mamalakatda ikki hokimiyatchilikning vujudga kelishiga sabab bo'lganni, mo'g'ullarning Xorazmshohlarga qarshi hujumida va yengilishida Turkon Xotunning hissasi va umrining so'ngi yillari aks etgan.

Kalit so'zlar: Turkon Xotun, Muhammad Alovuddin Xorazmshoh, Sulton Taksh, Jaloliddin Manguberdi, Urganch, Ilol.

XI asrning oxirlarida hukmdorlik faoliyatini boshlagan Anushteginiylar o'g'uzlarning Bekdili urug'idan yetishib chiqqan edi. Tarixnavislarning ma'lumotlariga ko'ra, Anushtegin xorazmshohlarning valiahdlari, hukmdorlari ularning Bekdili urug'idan tug'ilgan farzandlaridan tayinlanardi. Boshqa urug'ga mansub ayollardan tug'ilgan shahzodalar hukmdorlikka munosib ko'rilmasdi. Bunday tartib mamlakatda urug'lar, qabilalar o'rtasida taxt uchun kurashlarni kamaytirishga, sulolaning hukmronlik qudratini oshirishga xizmat qildi. Bu holat 1200 yil Alouddin Takash hukmronligining oxirigacha davom etdi. 1200 yil Muhammad Xorazmshoh taxtga o'tirishi bilan amal qilib kelinayotgan qoidalarga putur yetdi. Negaki, Takashdan keyin taxtga Nosiriddin Malikshoh o'tirishi kerak edi. U Takashning Bekdili urug'iga mansub xotinidan tug'ilgan bo'lib, bu sulolaning ichki tartiblariga mos edi. Biroq Nosiriddin Malikshohning 1197 yilda vafot etishi, Alouddin Muhammadning taxtga kelishiga sabab bo'ldi. Alouddin Muhammad Takashning qipchoq urug'iga mansub xotini Turkon xotundan dunyoga kelgan edi.

Takash vafot etgach o'g'li Alouddin Muhammadni ham, u boshqargan Xorazmshohlar davlatini ham Turkon xotun qo'lga oladi. Bekdili urug'iga mansub amaldorlarni mansablaridan chetlashtirib, yuqori lavozimlarga qipchoq urug'idan bo'lgan o'z yaqinlarini qo'yadi¹. Turkon xotun nafaqat sulton, balki moliyaviy

¹ Matyoqubov K. Malikaning jasorati /Adolat ijtimoiy-siyosiy gazetasi, №18-son, 2020 yil.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ishlar, arkoni davlat va saroy amaldorlari ustidan ham hukmronlik qilgan. Ko'p hollarda Muhammad Xorazmshoh tomonidan e'lon qilingan qarorlar Turkon xotun tomonidan hech qanday asossiz, kengashsiz bekor qilinardi. Sulton Nizomulmulkni chetlashtirib, uni jazolashni buyurgan Izziddin To'g'ul ham Turkon xotun buyrug'i bilan bu ishni qilmadi. Bu ham yetmaganidek, Turkon xotun devonda Sulton nomidan yolg'on gaplarni gapirishga Izziddin To'g'ulni majbur qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, bir tomondan Sulton va ikkinchi tomonda Turkon xotun turganda Izziddin To'g'ul Xorazm hukmdori, 27 mamlakatni bo'ysundirgan, hattoki, Bag'dodga yurish qilgan Sultonning emas, balki uning onasi Turkon xotunning buyrug'iga amal qildi. Bundan kelib chiqib aytyshimiz mumkinki, amaldorlar Sultondan emas ko'proq Turkon xotundan qo'rqanlar. Qanchadan qancha hududlarni bo'ysundirgan, uning hukmdorlarini itoat ettirgan, hech qaysi hukmdor amalga oshirolmagan qoraxitoylarni daf qilgan Sulton oddiygina vazirini ham jazolay olmadi. Aksinch, Turkon xotunning qilgan ishlari orqali u yanada yuksaklarga ko'tarildi, ya'ni "Nosiriddin... vazir qilib tayinlangan paytda Sulton unga to'rtta nayzador tayinlagan edi. Odatda ulug' vazirlarga shunday ehtirom ko'rsatilardi, nayzadorlar nayzalari sopiga esa tillo qoplama qoplanardi. Xorazmda vazirlar atrofiga sakkiz nayzador qo'yiladigan bo'ldi. Bu ularning nasabini ulug'lashga qaratilgandi. Bular haqidagi ma'lumotlar Movarounnahrda turgan Sultonga ham yetib borar, bu uning g'azabini kuchaytirardi"². Alovuddin Takash Qutbiddin Muhammadni valiahdlikka tayinlagach, uni Bekdili urug'iga mansub bo'lgan bo'lgan Oychechakka uylantirdi. Va bu nikohdan 1199 yilda tug'ilgan Jaloliddin Mengburnini Alouddin Muhammadning valiahdi deb e'lon qildi. Bu bilan u xorazmshohlar taxtida Bekdili urug'iga mansub anushteginiylar sulolasi hukmronligi davom etishini xohladi. Afsuski, uning o'limi bu orzuni ushalishiga yo'l bermadi. Turkon xotun esa o'g'lini o'z urug'iga mansub qipchoq xonlarining qizlariga uylantirib, ulardan tug'ilgan farzandlarni taxt vorislari etib belgiladi. Bu yerda biz Turkon xotunning Anushteginiylar sulolasida o'rnatilgan ichki tartiblarga o'zgarishlar qilib, o'zi mansub bo'lgan urug' vakillarining hokimiyatni egallashini xohlayotganini ko'rishimiz mumkin. Eri Takashning vasiyatiga qarama-qarshi o'laroq, Jaloliddinni valiahdlikdan chetlashtiradi, uning o'rniga Sulton Muhammadning qipchoqlardan bo'lgan xotinidan tug'ilgan o'g'li O'zlog'shohni

² Shihobiddin Muhammad an-Nisoviy. Siyrot us-sulton Jalol ad-din Mengburni (Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti) /Kamol Matyoqubov tarjimai. -T.: "O'zbekiston", 2006. -B. 54.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

taxt vorisi etib tayinlaydi va o'zining nazoratida bo'lgan Xorazm, Xuroson hamda Mozandaronga hokimlik qilish huquqini berdi. Uning uchun mana bunday to'g'ri ham tanladi: "Sulton Abul Muzaffar O'zlog'shoh ibn Sulton Sanjar G'iyos amir al-mo'minin"³. Nasaviyning guvohlik berishicha, makkor Turkon Xotun o'g'liga shu daraja o'z ta'sirini o'tkazganki, natijada Xorazmshoh Muhammad mamlakat ichkarisidagina emas, balki xalqaro maydonda ham Xorazmning yagona hukmdori sifatidagi rolini boy berdi. Bundan tashqari, katta qudratga ega bo'lgan sarkardalarining ko'pchiligi qipchoqlardan bo'lgani bois, hukmdor onasiga yon berishga majbur edi. An-Nasaviy bunday yozadi: «Agar malikadan va sultondan bir ish haqida ikkita ko'rsatma kelsa, u holda ularning sanasiga qarar edilar va barcha mamlakatlarda keyingi sanaga amal qilardilar...»²⁸. Turkon Xotun «Jahon hokimi» laqabiga ham ega edi, uning farmonlaridagi shaxsiy muhri — tug'risida: «Ismat ud-dunyo vad-din Ulug' Turkon malika niso al-olamiyn» (Dunyo va uning pokdomoni, Ulug' Turkon, olam ayollarining malikasi) deb bitilgan edi. U «I'tasamtu billahi» («Faqat Allohdan himoya kutaman») deyilgan so'zlarni bosh shior qilib olgan. Xorazmshohlar davlatida mo'g'ullar bosqini arafasida bir mamlakatda ikkita paytaxt — Gurganj va Samarqand, ikkita hukmdor — Turkon Xotun va Xorazmshoh Alouddin Muhammad bor edi. Gurganj shahrida Turkon Xotunning qarindoshlaridan sultonning turkiy qo'shiniga tegishli nufuzli a'yonlargina (boshliq o'rnida) edilar, jumladan, Xumor Ag'u — hojib sipohsolor (lashkarboshi), Buka Pahlavon, Ali Marg'ini va boshqalar. Xorazmshoh 1216 yilda onasining shayxini qatl qildirgandi. Ona-o'g'il raqobati davlatni ich-ichidan nuratmoqda edi. Sultonning xalifa nomini xutbada zikr etmaslik to'g'risidagi farmoniga faqat Marv, Balx, Buxoro va Saraxsda amal qilinar, Samarqand, Hirot va Xorazmda esa aksincha edi. Mahalliy an'analarning kuchli ekanligi, Turkon Xotunning va uning ta'siri ostidagi xonlar va ulamolarning Sulton Muhammad hukmronligi davrida davlatchiliqda o'ziga xos ikki hokimiyatchilikning yuzaga kelishida saljuqiylarning bosh vaziri mashhur Nizomul-mulk (1018-1092) ishora etganidek, «Qachonki podshohlik ishi ayollar va go'daklar qo'liga o'tsa, bilginki, podshohlik o'sha xonadonni tark etgay». Xorazm poytaxtini qamal etgan Chingizxon lashkarlari turli nayranglar bilan shohning onasi Turkon Xotunni taslim bo'lishini talab qilishgan. Urgandagi qo'shin va aholisi mudofaa kuchiga ega bo'lsa-da, Turkon Xotun

³ Buniyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231) // A.Ahmad va M.Mahmud tarjimasi. –Toshkent, 1998. –B. 160.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Vatanni dushmanga tashlab qochgan o'g'li Muhammaddan keyin vahimaga tushadi. Samarqand taslim bo'lgandan so'ng, Chingizxon Xorazmshohning qo'shin to'plab, qarshilik ko'rsatishiga yo'l bermaslik va o'zini qo'lga tushirish maqsadida, sarkardalari Jebe no'yon va Subedey no'yoni taxminan 20 minglik qo'shin bilan Sulton ketidan jo'natdi. Mo'g'ullarning ta'qibiga uchragan Xorazmshoh Xuroson va Eron orqali o'tib Kaspiy dengizidagi orollardan biriga kelib qoladi. Bor-budidan mosuvo bo'lib, g'am-alam ostida og'ir kasallikka chalingan Sulton Alouddin onasi Turkon Xotunning mo'g'ullarga asir tushganini eshitib valiahd tayinlash borasida burungi farmonini bekor qilib, Jaloliddinni taxt vorisi deb e'lon qilgan edi. 1220 yili Xorazm mo'g'ullar tomonidan istilo qilingach, Sulton Alouddin Xazar dengizidagi Abiskin orollaridan biriga qochishga majbur bo'ldi. Shoh xotinlari va farzandlari xazinadagi boyliklar va boshqa qimmatbaho buyumlarini olib shaharni tark etadi. Berahm malika esa shaharda qolgan barcha sultonlar, hokimlar va ularning o'g'illarini, jami 26 kishini qatl qildirgan, ya'ni Amudaryoga cho'ktirgan. Bunday sharmandalik Turkon Xotundan ko'p tarafdorlarini yuz o'girtirgan. U faqat o'z xizmatkorlari, vazir Muhammad Solih hamda yo'l ko'rsatuvchi Umarxon hamrohligida qochib ketgan. Noshukr malika Ilol shahri Mozandaronga etgach, yo'l boshlovchini ham qatl qildiradi. Chingiz lashkarlari Turkon Xotun izidan borib, Ilol shahrini qamal qilib, ko'p o'tmay uni ham bosib oladi. Malika Xorazmshohning butun harami, bolalari bilan asirga tushadi. Mo'g'ullar shoh bolalarini o'ldirib, haram ayollarini xotin qilib oladilar, Turkon Xotun esa Chingizxon qarorgohiga jo'natiladi. Turkon Xotunning asirlikdagi ahvoli juda ayanchli edi, u Chingizxonning dasturxonida qolgan sarqiti bilan ovqatlanardi. Bir paytlar har qanday farmoyishi darhol bajarilgan malikai jahon Turkon Xotun 1233 yili xoru zorlikda vafot etadi⁴. Ibn al-Asirning qayd etishicha, Turkon xotun 1220 y. Ilol qal'asida mo'g'ullarga asir tushadi va xizmatkorlari bilan birgalikda Toliqonda turgan Chingizxon huzuriga etkaziladi. Asirlar safida bo'lgan vazir Malik Nosiruddin Hazoraspiy qattiq qiynoqlarga solinadi va sultonning farzandlari qatori qatl etiladi. Mo'g'uliston tomon o'tlangan Chingizxon bir necha kun Samarqandda to'xtashga qaror qiladi hamda Turkon xotun va sultonning omon qolgan xotinlariga xorazmshohlar saltanati uchun aza ochish, ya'ni mo'g'ul askarlari oldiga chiqib baland ovoz bilan yig'lashni buyuradi. Chingizxon ko'rsatmasiga binoan,

⁴ Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy "Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mangburni" (Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tavsiloti) "O'zbekiston" nashriyoti, T.: 1999, -B. 96.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Qoraqurumga keltirilgan Turkon xotun qashshoqlikda umr kechiradi va shu erda vafot etadi⁵. Turkon Xotun xorazmshohlar davlat boshqaruvi va davlat tarixiga oid manba va asarlarning katta qismida asosan, davlatning inqirozi bosh sababchilaridan biri sifatida qarab kelingan. Turkon Xotun aralashuvi natijasida Xorazmshoh Alovuddin Muhammad va undan keyin anushteginiylar sulolasi shahzodalari orasiga o'zaro nizo tushadi deya yoritiladi manbalarda. Ammo masalaning yana boshqa tomoni ham borki, malika Turkon xotun o'z navbatida davlat rivoji va sarhadlari kengayishiga ham xissa qo'shganini inkor qilib bo'lmaydi. O'z siyosiy nufuzi orqali hamda onalik mehri bilan o'g'lining ko'nglidan ijobiy o'rin egallab turgani, Xorazmshoh o'z onasini nihoyatta hurmat qilgani haqida ma'lumotlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Matyoqubov K. Malikaning jasorati /Adolat ijtimoiy-siyosiy gazetasi, №18-son, 2020 yil.
2. Shihobiddin Muhammad an-Nisoviy. Siyrot us-sulton Jalol ad-din Mengburni (Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti) /Kamol Matyoqubov tarjimasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2006. -B. 54.
3. Buniyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231) // A.Ahmad va M.Mahmud tarjimasi. –Toshkent, 1998. –B. 160.
4. Ibn al-Asir “Al-komil fit-tarix” (“Tarix haqida mukammal kitob”) -B. 109.

⁵ Ibn al-Asir “Al-komil fit-tarix” (“Tarix haqida mukammal kitob”) -B. 109.

